O‘QUVCHILAR NUTQI USTIDA ISHLASH VA NUTQIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Nuriddin Olimjonovich Kirgizov
Namangan davlat pedagogika instituti
(PhD) dotsent
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23687423

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning mazmuni, maqsadi va metodik asoslari yoritiladi. O‘quvchi nutqining to‘g‘riligi, aniqligi, izchilligi, mantiqiyligi, ravonligi, boyligi va ifodaliligi kabi asosiy talablarga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, dars jarayonida lug‘at ustida ishlash, gap tuzish, matn yaratish, qayta hikoyalash, suhbat, savol-javob, ijodiy topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘qituvchining nutqiy muhitni tashkil etishdagi roli hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va og‘zaki-yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi nutqi, nutq o‘stirish, boshlang‘ich ta’lim, lug‘at boyligi, ravon nutq, mantiqiylik, ifodalilik, og‘zaki nutq, yozma nutq, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, bog‘lanishli nutq tushunchalari tahlili.

Аннотация. В статье рассматриваются содержание, цели и методологические основы развития речевых навыков учащихся в процессе начального обучения. Особое внимание уделяется таким ключевым требованиям к речи школьников, как правильность, точность, логическая связность, беглость, богатство и выразительность. Кроме того, анализируются возможности включения в учебный процесс работы над лексикой, построения предложений, создания текстов, пересказа, бесед, вопросно-ответных сессий, творческих заданий и интерактивных методов. Также освещается роль учителя в создании насыщенной речевой среды и предлагаются практические рекомендации по стимулированию самостоятельного мышления учащихся и развитию у них навыков устной и письменной коммуникации.

Ключевые слова: речь учащихся, развитие речи, начальное образование, лексика, беглость речи, логическая связность, выразительность, устная речь, письменная речь, формирование речевых компетенций, анализ понятий связной речи.

Kirish

Ta’lim jarayonida o‘quvchining bilim, ko‘nikma, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish bilan birga uning o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda aniq, izchil hamda tushunarli ifodalashiga erishish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida nutq rivoji bolaning keyingi ta’lim faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchi nutqi ustida ishlash faqat ona tili yoki o‘qish darslarining vazifasi emas balki boshlang’ich sinfda o’tiladigan barcha darslarda takomillashtirish mumkin. O’qituvchi boshlang’ich ta’lim jarayonida barcha o’tiladigan fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchining savolga to‘liq javob berishi, fikrini asoslay olishi, kuzatgan hodisasini tasvirlashi, o‘qigan matni mazmunini qayta bayon qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi uchun sharoit yaratilishi lozim. Bunday yondashuv nutqiy faoliyatni izchil va tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar nutqi ustida ishlashning maqsad va vazifalari

Boshlang’ich talimda nutq ustida ishlashning asosiy maqsadi o‘quvchining til imkoniyatlaridan amaliy foydalanish, muloqot jarayonida o‘z fikrini erkin ifodalash va turli kommunikativ vaziyatlarga mos nutq tuza olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar muhim hisoblanadi:

- o‘quvchilarning faol va passiv lug‘at boyligini kengaytirish;
- so‘zlarni ma’nosiga mos va o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish;
- gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish;
- fikrni izchil, mantiqiy va tushunarli bayon qilish malakasini rivojlantirish;
- og‘zaki va yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlashga o‘rgatish;
- suhbatdoshni tinglash, savol berish va savolga mazmunli javob qaytarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ijodiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va o‘z fikrini dalillashga undash.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar

O‘quvchining nutqi kommunikativ jihatdan samarali bo‘lishi uchun u bir qator talablarga javob berishi kerak. Bu talablar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, dars jarayonida bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

Nutqning to‘g‘riligi. Adabiy til me’yorlariga, grammatik qoidalarga, talaffuz va imlo talablariga rioya qilish albatta ahamiyatli sanaladi.

Nutqning aniqligi. Fikrni ifodalashda so‘z va iboralarning ma’nosini to‘g‘ri tanlash, noaniq yoki ortiqcha so‘zlardan dars jarayonida foydalanmaslik ahamiyatli sanaladi, .

Nutqning mantiqiyligi. Fikrlar o‘rtasidagi sabab-oqibat va mazmuniy bog‘lanishlarni saqlash, gaplarni izchil joylashtirish maqsadli hisoblanadi.

Nutqning ravonligi. Har bir dars jarayonida fikrni keraksiz, to‘xtalishlarsiz, sodda va tushunarli tarzda bayon qilish samaradorlikni oshiradi.

Nutqning boyligi. Boshlang’ich ta’lim jarayonida **s**inonim, antonim, uyadosh so‘zlar, iboralar va turli gaplardan o‘rinli foydalanish samaradorlikni shakllantiradi.

Nutqning ifodaliligi. Savod o’rgatish jarayonidan boshlab ohang, urg‘u, pauza va texnik vositalar orqali dars jarayonini tashkil etib fikr mazmunini ta’sirchan ifodalash.

Nutq ustida ishlashning samarali metod va usullari

Boshlang‘ich ta’limda dars davomida nutq o‘stirish ishlari o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga mos, qiziqarli hamda faol metodlar asosida tashkil etilganda samarali natija beradi. Bunda tayyor qoidani yodlatishdan ko‘ra darslikdagi topshiriqlar asosida o‘quvchini nutqiy faoliyatni shakllantirishga jalb qilish ustuvor bo‘lishi kerak.

Rasm asosida hikoya tuzish. Boshlang’ich ta’lim jarayonida darslikda berilgan rasm asosidagi topshiriqlarni o‘quvchilar unda tasvirlangan voqea va predmetlarni kuzatadi, so‘z va gaplar yordamida mazmunli hikoya yaratadi hamda tahlil qiladi, xatolarini to’ldiradi. Shu orqali ularning nutqiy kompotensiyalari shakllantiriladi

Klaster. Boshlang’ich ta’limda barcha o’tiladigan darslarda rejada berilgan muayyan mavzu atrofida o‘quvchilar biladigan so‘z va tushunchalarni taqqoslash orqali lug‘at boyliklari faollashtiriladi.

Aqliy hujum. Har bir dars davomida o’tilayotgan mavzular bo’yicha **s**avol yoki muammolar yuzasidan o‘quvchilarning erkin fikrlari to’planadi, so‘ngra ular tartibga solinib matn xolatiga keltiriladi.

Qayta hikoyalash. Sinflar kesimida berilgan topshiriqlar asosida matn mazmunini reja orqali hamda tayanch so‘zlar yoki rasmlar asosida qayta bayon qilish orqali izchil nutq shakllantirish bilan amalga oshiriladi.

Lug‘at ustida ishlash va bog‘lanishli nutqni rivojlantirish

Boshlang‘ich talim jarayonida o‘quvchi nutqining boyligi, avvalo, uning faol lug‘atiga bog‘liq hisoblanadi. Shu sababli darslarda yangi so‘zlarning ma’nosini tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, ularni turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llashga imkon berish zarur. Masalan, yangi so‘z ishtirokida gap tuzish, unga ma’nodosh yoki qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni topish, so‘zni matndan izlash, rasm asosida qo‘llash kabi topshiriqlar samarali hisoblanadi.

Bu orqali bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda reja asosida hikoya tuzish, voqealarni ketma-ket bayon qilish, matnning boshlanishi yoki yakunini mustaqil yaratish, qahramonlarga tavsif berish, matn mazmuni bo‘yicha savollar tuzish kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchini faqat javob berishga emas, balki mustaqil nutqiy malakasini yaratishga yo‘naltiradi.

O‘qituvchining nutqiy muhitni tashkil etishdagi roli

O‘quvchi nutqining rivojlanishida o‘qituvchining shaxsiy nutqiy namunasi katta ahamiyatga ega sanaladi. Dars davomida o‘qituvchi aniq, ravon, adabiy til me’yorlariga mos va o‘quvchilarning yoshiga tushunarli tilda gapirishiga o’rgatish ahamiyatli sanaladi. Darsda o‘quvchilarga fikrini bo‘lmasdan tinglash, xatoni kamsitmasdan tuzatish, har bir o‘quvchining fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish uchun qulay muhit yaratilishi kerak. Dars davomida yo‘l qo’yilgan nutqiy xatolarni tuzatishda o‘qituvchi xatoning o‘zini ko‘rsatish bilan birga uning to‘g‘ri variantini o‘quvchining o‘zi topishiga imkon berishi maqsadga muvofiq. Bu usul o‘quvchining til sezgisini, o‘z-o‘zini nazorat qilish va tahrirlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Amaliy topshiriqlar namunasi

- ✓ “Bir daqiqalik nutq” - berilgan topshiriq bo‘yicha 1 daqiqa davomida izchil fikr bildirishga o’rgatiladi.
- ✓ “So‘zni boyit” - berilgan so‘zga 3 ta sinonim, 2 ta antonim yoki shu so‘z ishtirokidagi 2 ta gap tuzish samarali hisoblanadi.
- ✓ “Rasmni gapirtir” - rasm asosida kamida 6-8 gapdan iborat bog‘lanishli hikoya tuzish hamda tahlil qilishga o’rgatish.
- ✓ “Xatoni top va tuzat” - qisqa matndagi leksik, grammatik va mantiqiy kamchiliklarni aniqlash.
- ✓ “Dialog tuz” - kundalik hayotdagi vaziyat asosida ikki kishilik dialog yaratish samaradorlikni oshiradi.
- ✓ “Hikoyani yakunla” - o‘qituvchi tomonidan boshlangan hikoyani mustaqil ravishda mazmunli o’quvchilar tomonidan yakunlashga undaladi.

Darsda va darsdan tashqari mashg’ulotlarda o‘quvchilar nutqi ustida ishlash boshlang‘ich ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u barcha fanlarni o‘zlashtirish va o‘quvchining ijtimoiy-kommunikativ faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Nutqni rivojlantirish jarayonida to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ravonlik, boylik, ifodalilik va maqsadga muvofiqlik kabi talablarni izchil shakllantirish lozim. Buning uchun o‘quvchiga ko‘proq gapirish, tinglash, savol berish, fikrini asoslash, matn yaratish va o‘z nutqini tahrirlash imkoniyatini berish zarur.

Xulosa qilib aytganda, nutq ustida ishlash muntazam, tizimli va amaliy xarakterga ega bo‘lgandagina o‘quvchining kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi. Interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va hayotiy nutqiy vaziyatlardan foydalanish esa bu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Noshir, 2009.
2. Ikromova R. va boshqalar. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2012. -224 b.
3. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov,. Ona tili va o’qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b.
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o’qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b.
5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o’qish savodxonligi 1-sinf . –Toshkent, 2021. –104 b.